

6 – TOM 5 – SON / 2023 - YIL / 15 - MAY

**ABU ALI IBN SINONING “HAY IBN YAQZON” QISSASIDAGI AXLOQIYLIK
MEZONLARINING BADIY OBRAZLAR MISOLIDA TALQIN ETILISHI**

Ziyodullayev Maqsudjon Shokirjon o‘g‘li

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Sharq falsafasi va madaniyati
yo‘nalishi, 2-bosqich magistratura talabasi.*

Axmedova S.D

*Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Sharqshunoslik
Universiteti o‘qituvchisi f.f.n.*

Annotatsiya: *Ibn Sino “Hay Ibn-Yag‘zon” qissasining falsafiy yoritilishi va falsafiy tahlilini qilib unda inson fe'l-atvoridagi qiziqqonlik, munofiqlik, ta'magirlilik, zulmkorlikka, o‘g‘rilik va aldamchilikka moyillik, o‘zining hoyu-havaslarini qondirish istagi, ehtiroslarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do‘sstar” deb atagan.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Tufayl, Hay Ibn-Yag‘zon, organik dunyo, qiziqqonlik, munofiqlik, zulmkorlik, moyillik, Aristotel.*

Inson fe'l-atvoridagi qiziqqonlik, munofiqlik, ta'magirlilik, zulmkorlikka, o‘g‘rilik va aldamchilikka moyillik, o‘zining hayu-havaslarini qondirish istagi, ehtiroslarga berilish, hayvoniy hirslar – bularning barchasini Ibn Sino buzuq niyatli “do‘sstar” deb atagan. Ibn Sino inson o‘zining “jilovini” mana shunday “do‘sstar”ning qo‘liga topshirib qo‘ymasligi kerakligi haqida ogohlantiradi. Inson doimo ulardan yuqoriq turishi, doimo aql-idroki doirasida odimlashi lozim – shundagina u o‘z do‘sstarini to‘g‘ri yo‘ldan boshlab boradi. Ular seni o‘zlariga bo‘ysundirib olmaslaridan avvalroq, — deydi Ibn Sino, — sen ularni o‘zingga bo‘ysundirishing lozim.⁴⁸

Ibn Sino bu asarida ilm-ma'rifatni o‘rganishga kirishgani tufayli ko‘zi ochilgani, natijada Aql (Hayy ibn Yaqqon) ko‘ziga ko‘ringani va ilm unga o‘z jamolini namoyon etganini hikoya qilar ekan, ilm-aqlni o‘lim bilmaydigan uyg‘oq, qarimaydigan yosh, beli bukilmaydigan – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo‘lgan va bilishi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘qishga kirishgani, bu yo‘lda aqlni ishga solib, farosatli bo‘lib, o‘zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Demak, “Hay ibn Yaqqon” mantiq ilmiga bag‘ishlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega. Risola insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o‘zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asargina bo‘lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir. Shuning uchun ham u odamlarga qarata shunday xitob qiladi: “Ey birodarlar! Bir –biringiz bilan samimiyl do‘sst bo‘lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o‘z birodari uchun ko‘nglidagi

⁴⁸Baratov M. “Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir” T.: Fan 1980 22-b

samimiylidkan (to'sqinlik) pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodarlarining sizlardan (o'zi bilmagan) ba'zi narsalarni o'rgansin va yana boshqalari (bo'lsa) ba'zi narsalarni o'rganib, o'zini kamolotga etkazsin". Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shinchilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa jipslashishi va hamkorlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqiladi.⁴⁹

"Salomon va Ibsol" qissasining mazmuni quyidagicha:

Salomon bilan Ibsol aka-uka bo'ladilar. Ibsol o'z akasi Salomon qo'lida tarbiyalanadi. U juda odobli, o'qimishli va juda chiroyli bo'ladi. Ibsol balog'atga yetgach, akasining xotini uni ko'rib qoladi. Buni sezgan Ibsol o'zini yangasidan chetga tortib yuradi. Ammo xotin brogan sari Ibsol bilan yaqinlashishga intiladi. Nihoyat u fursat topib, Ibsolni tanho uchratadi va uning bo'yniga qo'l tashlaydi. Ibsol uni jerkib beradi, xotin esa, seni sinab ko'rish uchungina shunday qildim, deb qasam ichadi.⁵⁰

So'ngra xotin bu yo'l bilan o'z maqsadiga erisha olmagach, boshqa yo'l topadi. U Ibsolga o'zining singlisini olib bermoqchi bo'ladi va bu to'grida Salomon bilan maslahat qiladi. Alomon maslahatni ma'qullaydi. Keyin xotin singlisi huzuriga borib, uni Ibsolga olib bermoqchilagini, lekin bundan maqsadi o'zining Ibsol bilan birga bo'lshligini aytadi va singlisin ko'ndiradi. O'ylanishga Ibsol ham ko'nadi. Keyin xotin Ibsol oldiga kelib, singlim juda uyatchang qiz, shuning uchun sen uning oldiga bir oy mobaynida kumduz kuni kirma, tun qorong'usida kirgin, deb uqtiradi. To'y bo'lib o'tadi. Ibsol qallig'i oldiga tunda kirishi bilanoq, qalliq uni darhol qicholab oladi. "Uyatchan" xotinining bu harakatidan u shubhaga boradi, shunda chaqmoq chaqiladi-yu Ibsol yangasining yuzini ko'radi.⁵¹

Ibsol imdamay chiqib ketadi va qasirdan boshqa joyga ketishga qaror qiladi. Vaqtlar o'tib yangasining munosabatini o'zgartirganligidan umid qilgan Ibsol saroyga qaytadi. Dushmanlari bilan bo'lajak jangda ham yangasi unda qutulmoqchi bo'ladi. Bu rejasи ham amalga oshmagach, yangasi oshpaz bilan til biriktirib unga zahar ichiradi va o'z niyatiga erishadi.⁵²

Bu qissa hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, o'z oldiga kata tarbiyaviy masalalarni qo'yadi. Povestda sabot va matonatli, chidamli va intizomli, sofdil va ajoyib bir yigit – Ibsol obrazini hamda har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, o'zining iflos maqsadini amalga oshirishga tirishadigan, bu yo'lda hech narsadan toymaydigan salbiy bri ayol obrazini beradi.

⁴⁹ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 32-b

⁵⁰ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 22-b

⁵¹ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 23-b

⁵² O'sha joyda

Ibn Sinoning “ Risolatut Tayr ” (“ Qush risolasi ”) asari uning adabiy ijodi va dunyoqarashini bilishi muhim asarlaridan hisoblanadi. Bu asar, aslida, ramz-ishoralar bilan yozilgan bo‘lib olimning tarjimai holini bilishda katta ahamiyat qozonadi. “ Risolatut Tayr ” asarining bosh qismi olimning do‘stlik haqidagi nasihatlaridan iborat. Bu yerda u odamlarni bir-biri bilan ahil, do‘st bo‘lib yashashga, do‘stlikning qadriga yetishga, uning to‘la ma’nosini yaxshi tushunib, uqib olishga chaqiradi. Og‘zida do‘stman, deb, amalda do‘stning holidan xabar olmaydigan, nomigagina do‘st bo‘lib yuradigan kishilarni qoralaydi.⁵³

Bu hikoyadagi voqealar qush tilidan aytib o‘tiladi. Ya’ni buning qisqacha tafsiloti quyidagicha: qafasga tushgan qush o‘zidan olisroqda uchib ketayotgan qushlardan yordam suraganda, ular bu qushga yordam berishadi, lekin qanotlaridagi tuzoqdan xalos qilgan bo‘lsada, oyoqlaridagi tuzoqni olishga ojiz ekanliklarini aytishadi. Shunda ular ko‘plab dovonlardan oshib bir odil podshoning huzuriga borishadi, va bu podsho ularga bir elchi qo‘sib berajagini va bu elchi tuzoq qo‘yganlarga borib tuzoqni olib tashlashini tushuntirishini aytadi, chunki bu oyoqlaridagi tuzoqni qo‘ygan kishidan boshqa hech kim yecha olmas edi.⁵⁴

Aslida bu qush insonlar o‘rnida tasvirlangan bo‘lib, hikoya qiluvchi qush Ibn Sinoning o‘zi edi. Ya’ni o‘zi yashagan davrning qanchalik qiyin va azobli davr ekanligini tasvirlashga intilgan. Tuzoq qo‘ygan ovchi Mahmud G‘aznaviy bo‘lib Ibn Sino qayerga bormasin uning ta‘qibidan qutula olmagan edi. Unga yordam bergen podsho esa, Xorazmshoh Ma’mun edi.

Xulosa qilib aytganda, olimning “ Risolatut Tayr ” asari o‘rta asr badiiy – falsafiy adabiyotining ajoyib namunalaridandir.

Ibn Sinoning bu xildagi asarlaridan axloqiy ramzlar purma’no aks etishini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotimizning obyekti hisoblangan “ Hay ibn Yaqzon ”(“ Uyg‘oq o‘g‘li Tirik ”) qissasining mohiyatida cheksiz akl aks etadi. Ibn Sino kishi qalbida bo‘lishi mumkin bo‘lgan mana shunday xislatlarni “ Hayy ibn Yaqzon ” asarida ramziy ishoralar bilan bayon qiladi, yaxshi-yomon xulq, fe'l-atvorlarni iborali tarzda “kishi oshnalari” tariqasida talqin qiladi. Bu oshnalarning ba’zisi ko‘p nomaqbul yo‘llarga boshlaydi, inson ana shu yo‘llarga kirishdan o‘zini ehtiyyot qilishi lozimligini uqtiradi.⁵⁵

Bu qissada naql etilishicha, hikoya qiluvchi shaxs bog‘da o‘rtoqlari bilan sayr qilib yurganida qarshisida kelayotgan bir nuroniq qariyaga duch keladi. U bilan tanishgusi kelib qariyaga yaqinlashgach, chol yigitdan oldin unga salom beradi. Yigit choldan otini so‘rasa, nomim Hayy- Tirik, otamning ismi Yaqzon – Uyg‘oq, vatanim – Baytul Muqaddas, hunarim – dunyonи sayohat qilish, deydi. Keyin chol dunyonи sayohat qilganini: ko‘rgan-bilganini yigitga so‘zlab beradi.

⁵³ Baratov M. “ Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir ” T.: Fan 1980 26-b

⁵⁴ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 14-b

⁵⁵ Irisov A Falsafiy qissalar T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963 32-b

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baratov M. “ Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir ” T.: Fan 1980 22-b

2. Irisov A Falsafiy qissalar T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti – 1963

32-b

3. Baratov M. “ Abu Ali Ibn Sino – buyuk mutafakkir ” T.: Fan 1980 26-b